



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
532 sahifa, iyun, 2025-yil.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- |  |  |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan .....	12
<b>Isakov Janabay Yakypbayevich</b>	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
<b>Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B</b>	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market .....	23
<b>Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova</b>	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari .....	29
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston .....	35
<b>Islomova Dilrabo Salomovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli .....	40
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich</b>	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития .....	47
<b>Алиев Абдор Мураткулович</b>	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration .....	52
<b>Dilorom Mutalova</b>	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli .....	57
<b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
<b>Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li</b>	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida .....	66
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b>	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing.....	73
<b>Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna</b>	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties .....	80
<b>Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna</b>	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....	85
<b>Umarmulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
<b>Fazilat Egamberganova Shuhratovna</b>	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish .....	93
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari .....	98
<b>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</b>	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari .....	104
<b>Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich</b>	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi .....	110
<b>Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....	115
<b>Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida .....	118
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyrovich</b>	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari .....	125
<b>Yaqubova Nodira Olim qizi</b>	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari .....	130
<b>Nosirova Charos</b>	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni .....	135
<b>Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri .....	142
<b>Berdibekov A.</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari .....	148
<b>Axmedova Barno Abdiyevna</b>	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi .....	151
<b>Yaqubov Azizbek G'anibekovich</b>	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari .....	156
<b>Amonov Mehridin Oromiddinovich</b>	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari .....	163
<b>O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi</b>	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi .....	169
<b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyrovich</b>	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari ....	174
<b>S.J. Yangiboev</b>	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari .....	181
<b>Sharipov Narzullo G'ulomovich</b>	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	188
<b>Bakayev Xurshid Maxmudovich</b>	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
<b>Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович</b>	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
<b>Meliqulov Abduhalil Norinovich</b>	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar .....	215
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
<b>Xodjayev Jamshid Abduxakimovich</b>	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar .....	223
<b>Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi</b>	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni .....	230
<b>Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li</b>	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida .....	234
<b>Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna</b>	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari .....	239
<b>Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev</b>	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'рни .....	244
<b>Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich</b>	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach .....	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity .....	258
<b>Shamshinur Yakubova</b>	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari .....	263
<b>Ayubov Ilyos Iloxomovich</b>	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish .....	268
<b>Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li</b>	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili .....	274
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o' rni va ahamiyati .....	282
<b>Sohibova A'loxon Zafarjon qizi</b>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
<b>Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna</b>	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari .....	292
<b>Kodirkulov Oybek Turdiboyevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish .....	301
<b>Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich</b>	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati .....	306
<b>Qon'irbayev Dastan</b>	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане .....	311
<b>Салимов Шерзод Бахтиёрвич</b>	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis .....	316
<b>Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish .....	326
<b>Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li</b>	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim .....	331
<b>Ayubov Ilyos Iloxomovich</b>	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari .....	335
<b>Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich</b>	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies .....	342
<b>G'aforova Zarina Otabek qizi</b>	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida) .....	348
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili .....	352
<b>Abriev Zoirjon</b>	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan .....	358
<b>To'xtarova Feruzahon Yuldashevna</b>	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi .....	362
<b>Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich</b>	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления .....	366
<b>Машарипова Шахло Адамбаевна</b>	
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish .....	372
<b>Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich</b>	
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия .....	376
<b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>	
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea .....	383
<b>Umidjan R. Nazarkulov</b>	
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari .....	388
<b>Jalolova Madina Shopo'lat qizi</b>	
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida) .....	393
<b>Xudoyorova Mehrangiz</b>	
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы ..	400
<b>Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович</b>	
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi .....	408
<b>Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li</b>	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish.....	414
<b>Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'Ichiyev Oybek Ulug'bek o'g'li</b>	
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati.....	419
<b>G'oziyeva Aziza Abdusalomovna</b>	
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	427
<b>Mirzaxmedova A. A.</b>	
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	432
<b>Mirzaxmedova A. A.</b>	
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar .....	437
<b>Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi</b>	
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari.....	442
<b>Xojiyev Jaxongir Dushabayevich</b>	
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	447
<b>Norqobilov Nusratilla Norsaitovich</b>	
Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan .....	450
<b>Dauletbaeva Ulzada Bakhadirovna</b>	
Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi .....	454
<b>Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifat G'ayratovna</b>	
Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari .....	459
<b>Karimov Ulug'bek Usmonovich</b>	
Global iqtisodiyotda bank tizimini raqamlashtirishning ahamiyati.....	465
<b>Karimova Komila Daniyarovna, Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi</b>	
Dasturiy vositalarning o'zaro muvofiqlikda ishlash metodlari va algoritmlari tahlili .....	470
<b>Oybek Allamov, Boburbek Babajanov, Jahongir Bekturdiyev</b>	
Mamlakatimizdagi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili .....	475
<b>Baxriddinov Sharofiddin</b>	
Surxondaryo viloyati hududlarida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri ....	483
<b>Normurodov Alibek Anvar o'g'li</b>	



Методика выбора оптимальной стратегии обеспечения финансовой безопасности текстильных предприятий .....	489
<b>Турсунов Бобир Ортикмирзаевич</b>	
Kimyosanoat korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligi tahlili .....	494
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Buxoro shahar hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish .....	499
<b>Akramov Doniyor Rustam o‘g‘li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari qarz kapitalini boshqarish siyosatining muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga ta‘siri .....	503
<b>Kurbonov Xayrilla</b>	
O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish va xorijiy tajribalar .....	510
<b>Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li</b>	
Buxoro shahri turar-joy hududlarini takomillashtirish .....	516
<b>Odilov A.B</b>	
Buxoro shahrining barqaror rivojlanishida shahar infratuzilmasini yaratish metodlari .....	522
<b>Xasanov Feruz Anvarovich, Reyimbayev Shuxrat Sadullayevich</b>	
Paxta chigitidan yog‘ olishda qovurish jarayonining bazi aspektlari .....	527
<b>Artiqov A. , Fayziev E.U.</b>	



# PAXTA CHIGITIDAN YOG' OLIHDA QOVURISH JARAYONINING BAZI ASPEKTLARI

## Artiqov A.

Toshkent kimyo kimyo texnologiya instituti  
"Informatika va boshqaruv" kafedrası Professori. T.f.d

## Fayziev E.U.

Buxoro davlat texnika universiteti  
Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari yo'nalishi doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada paxta chigitidan yog' ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik bosqichlardan biri — yog'li mag'izni qovurish jarayonining ahamiyati tahlil qilingan. Qovurish harorati, davomiyligi va mag'izning namlik darajasining yog' ajralishiga hamda yog' sifatiga ta'siri eksperimental asosda o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, optimal texnologik sharoitlar aniqlanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** paxta chigiti, mag'iz, yog', qovurish, lipaza.

**Abstract:** This article presents a scientific analysis of one of the key technological stages in cottonseed oil production — the roasting of the oil-rich meal. Experimental studies have been conducted to examine the effect of roasting temperature, duration, and moisture content of the meal on oil yield and quality, including the activity of the lipase enzyme. Based on the obtained results, optimal technological parameters have been determined, and practical recommendations for improving production efficiency have been developed.

**Keywords:** cottonseed, meal, roasting, oil extraction, lipase, technological process.

**Аннотация:** В данной статье проведён научный анализ одного из важнейших технологических этапов производства масла из хлопковых семян — процесса обжарки жмыха. На основе экспериментальных исследований изучено влияние температуры обжарки, её продолжительности и уровня влажности жмыха на выход масла и его качество (включая активность фермента липазы). На основании полученных результатов определены оптимальные технологические параметры и разработаны практические рекомендации по повышению эффективности производства.

**Ключевые слова:** хлопковые семена, жмых, обжарка, масло, липаза, технологический процесс.

## KIRISH

Paxta chigiti O'zbekistonda eng ko'p ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi xom ashyolaridan biridir. Yurtimizda paxtaning bir qancha navlari yetishtirilib, har bir navdan olingan chigit tarkibidagi ko'rsatkichlar ham farq qiladi. Paxta tozalash jarayonida olinadigan chigitlar asosan yem-xashak, urug'lik va yog' olish uchun ishlatiladi. Paxta chigitining yadro qismida (mag'izida) 18-26% atrofida o'simlik yog'i mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich paxta navi va paxtaning qayerda yetishtirilishiga ham bog'liq. Shu yog'ni maksimal hajmda ajratib olishda chigitni oldindan issiqlik bilan ishlov berish — ya'ni qovurish muhim texnologik bosqich hisoblanadi. Paxta chigitidan yog' olish uchun chigitni qovurishda issiqlikning yuza bo'ylab teng tarqalishi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda paxta chigitini qovurish jarayoni olib borilgan idish yuzasiga urug' yopishib qolishining oldini olish eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Agarda qovurish jarayoni to'g'ri olib borilmasa, bu preslash jarayonida unumni tushirib yuboradi va natijada ajralib chiqayotgan yog' miqdori sezilarli darajada kamayib ketadi hamda sifati ham buzuladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta chigitidan yog' olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda qovurish bosqichi asosiy texnologik jarayon sifatida qayd etiladi. Pavlov A.P. va Vasilevskaya T.P. chigit yadrosini qovurish harorati va davomiyligi uning yog' ajralishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan, ularning tadqiqotida harorat ortishi yog' viskozitetini kamaytirib, presslash samaradorligini oshirishi ko'rsatilgan 1970. Yusufov M.Sh. esa paxta chigitini 120–130°C haroratda qovurish optimal natija berishini ta'kidlaydi, chunki bunda maksimal yog' ajralishi va sifatning saqlanishi ta'minlanadi 1996.

Qodirov B.A. paxta chigitini qovurishda namlikning bug'lanish dinamikasini o'rganib, ortiqcha qovurish oqibatida oqsil denaturatsiyasi yuz berib, yog'ning ta'mi va rangi yomonlashishini isbotlagan 2004. Xudoyberganov Sh.X. infraqizil qovurish usulini tadqiq qilib, bunda energiya sarfi kamayishi va yog' ajralishi oshishini

aniqlagan 2012. Mahmudov I. barabanli qovurish mashinalarini modernizatsiya qilish orqali issiqlik almashinuvi intensivligini oshirish zarurligini ko'rsatgan 2015. Sharipov N. esa aralash harorat rejimidan foydalanib, dastlab past, so'ng yuqori haroratda qovurish maksimal yog' ajralishini ta'minlashini aniqlagan 2018.

Xalqaro miqyosda esa Liu Q., Ma X. va Wang L. tomonidan Xitoyda o'tkazilgan tadqiqotda paxta chigitini 125°C atrofida qovurish eng yuqori yog' chiqishi va kam oksidlanish ko'rsatkichlarini bergani qayd etilgan (Food Chemistry, 2016). Shuningdek, amerikalik olim Boateng A.A. bioenergiya va oziq-ovqat sanoati uchun qovurishning termo-kimyoviy aspektlarini tahlil qilib, yuqori haroratning yog' sifatiga ta'sirini chuqur o'rgangan (Industrial Crops and Products, 2008). Hindistonlik Sharma R. va Gupta M. esa qovurish davomiyligi oshishi bilan yog' chiqishi ortishini, ammo peroksid ko'rsatkichlarining ham o'sishini aniqlagan (Journal of Food Science and Technology, 2015).

Ushbu milliy va xalqaro tadqiqotlar paxta chigitidan yog' olish jarayonida qovurish bosqichini ilmiy asoslash, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va tayyor mahsulot sifatini oshirish bo'yicha muhim nazariy hamda amaliy asoslarni yaratmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar laboratoriya sharoitida tajriba-sinov usuli orqali olingan bo'lib, bunda paxta chigitini turli haroratlarda qovurish natijalari qayd etildi, yog' ajralish miqdori gravimetrik usulda o'lchandi, olingan natijalar esa dispersiya tahlili yordamida statistik jihatdan tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta chigitini salmoqli qismi uning po'stlog'iga to'g'ri keladi. Paxta chigiti po'stlog'i ham o'z navbatida chorvachilik sohasida keng qo'llaniladi. Bunda olingan sheluxa-shorot omuxta yem manbasi bo'lib, chorvachilikda to'yimli va sifatli ozuqa hisoblanadi. Paxta chigiti tarkibida po'stloq 40-50%, mag'iz 50-60% miqdorida bo'lib, mag'iz tarkibida yog' 18-26%, oqsil 20-25%, uglevodlar 30-40%, namlik esa 7-9% atrofida bo'ladi. Yog' miqdori navga, yetishtirish hududiga va chigitni saqlash sharoitlariga bog'liq.

Jahon va respublikamizning yetakchi olimlari tomonidan paxta chigitini qovurish ustida juda ko'p ishlar olib borilgan. Jumladan, "Paxta chigitidan yog' olishda qovurish haroratining vaqti va har xil haroratning yog' miqdori va sifati bo'yicha ta'siri" mavzusidagi ishda chigit namligi 7,8% bo'lib, qovurish harorati 90°C, 100°C, 110°C, 120°C da 10 daqiqa davom ettirilgan, presslash esa vintli press yordamida amalga oshirilgan. Olingan natijalarga ko'ra, qovurish harorati 90°C bo'lganda yog' chiqish foizi 17,3%, namlik 3,6%, yog' kislotaliligi 2,8 mg KOH/g ni tashkil etgan. 100°C da esa yog' chiqish foizi 19,5%, namlik 2,9%, kislotalilik 2,1 mg KOH/g bo'lgan. 110°C da yog' chiqish foizi 20,7%, namlik 2,5%, kislotalilik 1,9 mg KOH/g, 120°C da esa yog' chiqish foizi 21,1%, namlik 2,3%, kislotalilik 1,6 mg KOH/g ni tashkil etgan.

"Qovurish haroratining paxta chigitidagi oqsil va yog' sifatiga ta'siri" mavzusida Farg'ona Politehnika Institutida o'tkazilgan tajribalar xulosalariga ko'ra, harorat 130°C dan oshganida oqsil denaturatsiyasi boshlanadi, 110-120°C oralig'i yog' uchun eng yaxshi va oqsil uchun xavfsiz harorat hisoblanadi. Chigitdan olingan yog'ning yod soni va peroksid soni esa optimal oraliqda qolgan. Shuningdek, Yangiyo'l Yog' Kombinatida ham "Qovurish jarayonining energetik va iqtisodiy samaradorligini baholash" mavzusida ilmiy ishlar o'tkazilgan. Kuzatuvlarga ko'ra, qovurishsiz presslashda yog' chiqish 16% atrofida bo'lsa, qovurilganda bu ko'rsatkich 20-22% gacha ko'tarilgan. Elektr energiyasi sarfi har bir tonna uchun 25-30 kVt/soatni tashkil etib, qayta ishlangan har 1 tonna chigit uchun 60-80 kg ortiqcha yog' olingan. Sifatli yog' olish tufayli mahsulot narxi 12-15% yuqoriroq baholangan.

Tadqiqotlarning umumiy xulosasiga ko'ra, qovurish yog' olishda asosiy texnologik bosqich bo'lib, yog' ajralishini 20-30% gacha oshiradi, yog'ning sifati, shaffoligi, ta'mi va saqlanish muddatini yaxshilaydi, fermentlar inaktivatsiyasi orqali oksidlanishni kamaytiradi hamda qolgan mag'izni yem sifatida ishlatish uchun qulay holga keltiradi. Yog' sifatini saqlab qolish uchun qovurish harorati qat'iy nazorat qilinishi zarur, chunki ko'p qovurish yoki juda yuqori haroratda ishlov berish yog'ning oksidlanishiga sabab bo'ladi.


Qovurish – bu issiqlik yordamida namlikni kamaytirish, hujayra tuzilmalarini yemirib, yog' hujayralarini ochish jarayoni bo'lib, natijada chigitdagi namlik 7-8% dan 2-3% gacha tushiriladi va yog' ajralishiga qulaylik yaratiladi. Harorat (105-120°C) ta'sirida hujayra devorlari yorilib, yog' presslash jarayonida oson chiqadi. Fermentlarning inaktivatsiyasi, ayniqsa lipaza faolligining yo'qotilishi yog'ning oksidlanishiga to'sqinlik qiladi, natijada yog' sifati oshadi, oksidlanish darajasi kamayadi, rang va ta'm yaxshilanadi.

Qovurilmagan chigitda yog' chiqish foizi 16,2%, yog'ning kislotalilik darajasi 3,4 mg KOH/g, sensor baho past bo'lsa, 100°C da 15 daqiqa qovurilganda yog' chiqish foizi 18,6%, kislotalilik 2,1 mg KOH/g, sensor baho o'rtacha bo'lgan. 110°C da 15 daqiqa qovurilganda yog' chiqish foizi 20,5%, kislotalilik 1,8 mg KOH/g, sensor baho yaxshi bo'lgan, 120°C da 10 daqiqa qovurilganda esa yog' chiqish foizi 21,2%, kislotalilik 1,6 mg KOH/g,



sensor baho juda yaxshi deb baholangan. Bu natijalar optimal qovurish harorati 110-120°C atrofida bo'lib, chigit tarkibidagi yog'ni maksimal miqdorda olishga imkon berishini ko'rsatadi.

Yirik yog' zavodlarida, masalan Yangiyo'l Yog' Kombinati va Toshkent Yog-Moy Kombinatida paxta chigiti 2-3 bosqichli issiqlik bilan ishlovdan o'tkazilib, har bir bosqichda harorat nazorat qilinadi va qovurilgan massa spiral press orqali yog' ajratiladi. Qovurishsiz usullarning kamchiliklari shundan iboratki, yog' chiqish 15-17% dan oshmaydi, chigit pressda yaxshi ezilmaydi, yog' tarkibida erkin yog' kislotalari ko'p bo'ladi va saqlash muddati qisqaradi (1-rasm).



1-rasm: Unumning temperaturaga bog'liqligi

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, qovurishning eng optimal harorati 120 °C ekan. 90 °C va undan past haroratda unum o'zining eng kritik miqdorini namoyon qiladi, 120 °C gacha esa yog' ajralib chiqish miqdori yaxshilanib boradi. Harorat optimal gradus, ya'ni 120 °C dan oshganda, yana unum miqdori kamayib boradi.

#### Xulosa va takliflar

Paxta chigitidan sifatli va ko'p miqdorda yog' olishda qovurish bosqichi ajralmas texnologik jarayon hisoblanadi. U nafaqat yog' chiqishini oshiradi, balki yog' sifati, saqlanish muddati va iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi. Issiqlik bilan ishlov berishda optimal parametrlarni belgilash (harorat, vaqt) yog' sanoatida muhim o'rin tutadi. Shu bois, har bir yog' ishlab chiqaruvchi korxonaga chigitni qovurish texnologiyasini ilmiy asosda takomillashtirishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamov A. Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari. Toshkent, 2020-yil.
2. Karimov S. va boshqalar. Yog' ishlab chiqarish texnologiyasi. Samarqand, 2018-yil.
3. FAO Technical Paper No. 161: Processing of oilseeds.
4. Journal of Food Processing & Technology, Vol. 12, Issue 4, 2023-yil.
5. Karimov S. va boshqalar. Yog' ishlab chiqarish texnologiyasi. Samarqand, 2018-yil.
6. FAO Technical Paper No. 161: Processing of oilseeds.
7. Q. Liu, X. Ma, L. Wang. Effect of roasting temperature on cottonseed oil yield and quality. – Food Chemistry, 2016. – Vol. 196. – P. 518-524.
8. A.A. Boateng. Cottonseed roasting for bioenergy and food processing. – Industrial Crops and Products, 2008. – Vol. 27. – P. 50-56.
9. R. Sharma, M. Gupta. Influence of roasting conditions on extraction and quality of cottonseed oil. – Journal of Food Science and Technology, 2015. – Vol. 52(6). – P. 3501-3508.
10. J.B. Harwood. Cottonseed oil processing and utilization. – Journal of the American Oil Chemists' Society, 1999. – Vol. 76(6). – P. 643-647.
11. Journal of Food Processing & Technology, Vol. 12, Issue 4, 2023-yil.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)